



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 105-112 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SANOAT KORXONASIDA XARAJATLARNI HISOBGA OLISH HOLATINING TAHLILI VA UNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI



Rasulova Shaxnoza Xatamovna,

Farg'ona politexnika instituti, tayanch doktoranti,

e-mail: rasulova.sh@ferpi.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz ishlab chiqarish xarajatlarini qanday hisobga olish va ularni tahlil qilish haqida so'z yuritdik. Zamonaviy dunyoda sanoat korxonada xarajatlar hisobi barqaror daromadni ta'minlashga yordam beradigan muhim element hisoblanadi. Shu boisdan tadqiqot davomida biz ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar hisobini samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratib, buni rentabelligi va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradigan asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatdik. Shuningdek tadqiqot so'ngida olingan ma'lumotlar asosida sanoat korxonada xarajatlar hisobi optimallashtirishga qaratilgan tavsiyalar va takliflar berildi.

Kalit so'zlar: xarajatlar tahlili, tovar ishlab chiqarish, ishlab chiqarish ishi, rejalashtirilgan va real xarajatlar, tovar qiymati, texnologiya bo'yicha xarajatlar tahlili, xarajatlarni yaxshilash, xarajatlarni baholash tizimi.

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ УЧЕТА ЗАТРАТ НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ И ПУТИ ЕГО ОПТИМИЗАЦИИ

Аннотация. В этой статье мы обсудили, как учитывать производственные затраты и анализировать их. В современном мире учет затрат на промышленном предприятии является важным элементом, способствующим обеспечению стабильного дохода. Поэтому в ходе исследования мы уделили особое внимание эффективной организации учета затрат в производственном процессе и показали это как один из основных факторов, способствующих повышению рентабельности и конкурентоспособности. Также на основе данных, полученных в конце исследования, были даны рекомендации и предложения, направленные на оптимизацию учета затрат на промышленном предприятии.

Ключевые слова: рыночная экономика, финансовые возможности, арендные отношения, производственные мощности, основные средства, аренда, обязательства по аренде, право пользования, инвестиционная деятельность, лизинг, собственник, лизинговые отношения, разгосударствление собственности.

ANALYSIS OF THE STATE OF COST ACCOUNTING AT AN INDUSTRIAL ENTERPRISE AND WAYS TO OPTIMIZE IT

Abstract. In this article, we discussed how to account for and analyze production costs. In the modern world, cost accounting in an industrial enterprise is an important element that contributes to ensuring stable income. Therefore, during the study, we paid special attention to the effective organization of cost accounting in the production process, which we showed as one of the main factors contributing to increasing profitability and

competitiveness. Also, based on the data obtained at the end of the study, recommendations and proposals were made aimed at optimizing cost accounting at an industrial enterprise.

Keywords: market economy, financial opportunities, lease relations, production facilities, fixed assets, lease, lease obligations, right of use, investment activity, leasing, owner, leasing relations, denationalization of property.

Kirish qismi. Bugun har bir korxonada foyda olish uchun xaridorbop tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yishi zarur. Biroq bu vazifani uddalash va foydani ko'paytirish maqsadida zamonaviy o'zgartirishlarga ham tayyor turishi, ma'lum resurslarni optimallashtirish yo'llarini izlashi kerak bo'ladi.

Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayonida moddiy, axborot, shuningdek, insoniy va ilmiy-texnikaviy resurslardan foydalaniladi, bu albatta ishlab chiqarish xarajatlariga aylanadi. Bu shuni anglatadiki, har qanday ishlab chiqarish korxonasining asosiy maqsadi o'zining asosiy faoliyatidan maksimal foyda olishdir. Korxonada rahbari foydani ko'paytirish va xarajatlarni minimallashtirishga olib keladigan samarali va muvaffaqiyatli ishlashni ta'minlashga intilishi kerak.

Biz sanoat korxonasida xarajatlarni hisobga olish tizimi holatining tahlili va uni optimallashtirish yo'llari to'g'risida fikr yuritish ekanimiz, misol tariqasida, to'qimachilik sanoati tarmog'i korxonalarining moddiy xarajatlar ulushi yuqoriligi bilan ajralib turishini e'tirof etishimiz mumkin. Bu sanoatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot turiga qarab — kalava ipmi, oqartirilmagan gazlamami yoki tayyor gazlamami tannarx tarkibida xomashyo va materiallarning salmog'i 70% dan 85% gacha bo'lishi mumkin. Bundan shuni anglash mumkinki bitta shu tarmoq sanoatda xarajatlarni hisobining naqadar korxonada istiqboliga bog'liqligini, bu bilan umumiy soha rivojlanish salmog'ini ham belgilab beradi.

Sanoat korxonasi ishining samaradorligi ko'p jihatdan resurslarning qanchalik samarali sarflanishiga va mahsulotning qanday sifatda ishlab chiqarilishiga bog'liq.

Ko'p xollarda sanoat korxonalarida moddiy xarajatlar katta rol o'ynaganligi sababli, ulardan ishlab chiqarish jarayonida oqilona foydalanishga alohida e'tibor beriladi. Boshqa xarajatlar: ish haqi, ijtimoiy ajratmalar, amortizatsiya va boshqa xarajatlarning salmog'i nisbatan katta bo'lmaydi.

Sanoat korxonalarida xususan to'qimachilik tarmog'ida, moddiy xarajatlar va mehnatga haq to'lash xarajatlarining aksariyati bevosita mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq. Shu munosabat bilan ishlab chiqarish xarajatlarining 90% ga yaqinini to'g'ridan-to'g'ri deb hisoblash mumkin, bu to'qimachilik sanoatining o'ziga xos xususiyatidir.

Shuningdek O'zbekistonda ko'plab sanoat korxonalarida duch kelayotgan asosiy muammolardan biri xarajatlarning nazoratsiz o'sishidir. Ushbu muammoni hal qilish uchun ishlab chiqarish sanoat korxonalarida xarajatlarni boshqarishning aniq dasturini ishlab chiqishlari kerak. Bu pirovard natija ya'ni biznesdagi muvaffaqiyatni belgilab beradi, ko'p jihatdan korxonaning o'z xarajatlarni qanchalik yaxshi boshqarishi foydaning kaliti hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki zamonaviy iqtisodiyot sharoitida xarajatlarni o'rganishga alohida ahamiyat ajratilishi kerak. Chunki har bir

korxonaning ish natijalari uning raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish xarajatlari darajasiga bevosita bog'liqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki ushbu tadqiqot bugungi kunda dolzarb hisoblanadi, chunki korxonaning xarajatlari, uning o'ziga xosligi va faoliyat yo'nalishidan qat'iy nazar, yakuniy moliyaviy natijani belgilab beradi, ya'ni foydaning salmog'ini.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sanoat korxonasida xarajatlarni hisobga olish tizimi holatining tahlili va uni optimallashtirish darajasi mahsuloti narxining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xarajatlarni hisobga olish tizimi holatining tahlili va uni optimallashtirish ishlab chiqarish korxonasining muvaffaqiyatli xo'jalik faoliyatiga yordam beradi. Shu munosabat bilan xarajatlar sanoat korxonasini boshqarishning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi.

Barcha korxonalar foydani oshirishga intiladilar, bu esa xarajatlarni sinchkovlik bilan tahlil qilmasdan va uning samarali nazorat tizimisiz amalga oshirish mumkin emas. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish korxonalari xarajatlarni boshqarishga alohida e'tibor berishga majbur, chunki maqsadli bozorlarda raqobat tobora kuchayib bormoqda.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalari o'z mahsulotlarining raqobatbardosh qiymatini ta'minlash uchun xarajatlarni samarali tahlil etishi, muntazam ravishda uni optimallashtirish usullarini izlashga majbur bo'lmoqdalar. Xarajatlarni hisobga olishning har bir usuli o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega, shuning uchun ishlab chiqarish jarayonida ham, tayyorgarlik bosqichida ham xarajatlarni optimallashtirish orqali korxonalariga raqobatbardosh ustunliklarga erishish imkonini beradigan tizimni yaratish muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijiy va mahalliy olimlar muallifligida, jumladan, Ch.T. Xorngren, Dj. Fosterlarning nashrlari va ilmiy ishlarida xarajatlar to'g'risida ko'plab izlanishlar olib borgan va ta'riflagan "Xarajatlar deb, korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati jarayonida turli xil resurslarni sotib olish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, pul ekvivalentida ifodalangan hisobot davridagi barcha xarajatlariga aytiladi. Keng ma'noda xarajatlar: ma'lum bir maqsad uchun ishlatiladigan resurslarning puldagi tavsifi; qat'iy qilib aytganda — xarajatlar, ya'ni tegishli davrda daromad olishga qaratilgan xarajatlar" [4-6].

Xarajatlar resurslarni sotib olish paytida yuzaga keladi: pul to'lash; kreditga sotib olish; tovar birjalari. Xarajatlar rejalashtirish, hisobga olish, nazorat qilish va tahlil qilishning markaziy obyekti sifatida kompaniya muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi eng muhim omil hisoblanadi, uning hajmi va ta'sirini tadbirkorlik va strategik qarorlar yordamida sezilarli darajada nazorat qilish mumkin. Xarajatlar juda keng iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning ta'rifiga turli xil yondashuvlar mavjud [7-8].

Hozirgi vaqtda ko'plab iqtisodchi mutaxassislar kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelishdi: "xarajatlar – hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko'payishidir" [2], ushbu ta'rif ko'plab mahalliy adabiyotlarimizda uchratishimiz mumkin, chunki bu ta'rif 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" da [1] berilgan, ushbu mulohaza korxonaning daromadi, xarajati va foydasi to'g'risidagi

konsepsiyaga asoslanadi ya'ni "yalpi foyda amalda sotilgan mahsulot qiymati va ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida namoyon bo'ladi" [3].


Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalarida xarajatlarning eng maqbul ta'rifini bizningcha: xarajatlar deb ma'lum vaqt oralig'ida mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun foydalaniladigan moddiy, tabiiy, moliyaviy, axborot, mehnat va boshqa turdagi resurslarning puldagi bahosiga aytiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozish jarayonida tadqiqotning umum-ilmiy va maxsus usullaridan foydalanilgan, shu jumladan: zamonaviy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish; taqqoslash, tasniflash, guruhlash, tashkilotning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish.

Tahlil va natijalar. Sanoat korxonasida xarajatlarni nazorat qilish moliyaviy boshqaruvning asosiy jihatlaridan biridir. Korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun pul mablag'laridan samarali foydalanish kerak.

Mahsulot sifati va xarajatlar miqdori ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish korxonasining muvaffaqiyatli ishlashi uchun xarajatlarni puxta nazorat qilish va o'z vaqtida tuzatish zarur.

Sanoat korxonasida xarajatlarni hisobga olish tizimi holatining tahlili va uni optimallashtirish yo'llari muhim bosqichi bu xarajatlarni nazorat qilishdir, bu korxonalaridagi asosiy boshqaruv tizimlaridan biridir. U korxonada resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash, vaziyatni yaxshilash mumkin bo'lgan sohalar va nuqtalarni aniqlash imkonini beradi. Tizim yordamchi materiallar va moliyaviy resurslardan foydalanishni kuzatib boradi, shuningdek, keraksiz xarajatlarni aniqlaydi. Shunday qilib, xarajatlarni nazorat qilish resurslardan foydalanishdan maksimal foyda olishga yordam beradi.



1-chizma. Sanoat ishlab chiqarishida xarajatlarni nazorat qilish tizimini yaratishning asosiy bosqichlari.

Biznes muhiti doimiy ravishda o'zgarib borayotgan bugungi kunda xarajatlarni optimallashtirish, samarali boshqarish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Xarajatlarni muvaffaqiyatli optimallashtirish uchun boshqariladigan tizimning holati, qanday

boshqaruv harakatlari amalga oshirilganligi, shuningdek, xarajatlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi omillar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lish kerak.

Xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish tizimini yaratish, ularni boshqarishning yangi usullaridan foydalanish va tahlil qilish uchun olingan ma'lumotlarning qiymatini oshirish zamonaviy sharoitda korxonaning samarali ishlashini ta'minlaydigan asosiy jihatlardir.

Xarajatlarni optimallashtirish murakkab va dinamik jarayon bo'lib, xarajatlarni minimallashtirish va foydani maksimallashtirishga qaratilgan. Bu jarayon muvaffaqiyatli ishlash, raqobatbardosh bo'lib qolish va o'z foydasini maksimallashtirishga intilayotgan kompaniyalar uchun katta ahamiyatga ega.

Xarajatlarni optimallashtirish keng qamrovli tizim bo'lib, xarajatlarni samarali nazorat qilish va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi bir nechta asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Eng muhim bosqichlardan biri xarajatlar tahlilidir. U xarajatlarni tasniflash, ularni hisobga olish va tahlil obyektlarining qiymatini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bu xarajatlar va ularning kompaniya faoliyatiga ta'siri haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Xarajatlarni tahlil qilish asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradigan turli xil protseduralarni amalga oshirish mumkin. Masalan, ishlab chiqarish va xo'jalik xarajatlarini nazorat qilish mumkin, bu ularni kamaytirish va foydani oshirishga yordam beradi. Shuningdek, ma'muriy-texnik xodimlardan ishlab chiqarish jarayonining normal kechishidan mumkin bo'lgan chetga chiqishlar to'g'risida tezkorlik bilan ma'lumot olish muhimdir. Bu muammolarga tezda javob berish va ularni tezda bartaraf etish imkonini beradi.

Haqiqiy xarajatlar tahlili mahsulot tannarxi va rentabelligini tushunish uchun zarur. Bu ishlab chiqarishni, shuningdek, tarkibiy bo'linmalar va umuman kompaniya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash imkonini beradi.

Shu boisdan biz "BS TEXTILE FARGONA" mas'uliyati cheklangan jamiyat misolida barqaror faoliyat yuritishi uchun xarajatlarni tahlil qilish va nazorat qilishning samarali mexanizmini ishlab chiqishga urindik.

1-jadval.

"BS TEXTILE FARGONA" mas'uliyati cheklangan jamiyatning 2021-2022-yildagi xarajatlar tarkibi

(ming so'mda).

Ko'rsatkichlar nomi	yillar		O'zgarishlar (+/-)	
	2021	2022	miqdori	foizda
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	98 156 072,0	111 614 434,0	13 458 362,0	113,7
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	83 069 244,0	102 495 965,0	19 426 721,0	123,4

Davr xarajatlari, jami, shu jumladan:	4 098 980,0	6 851 545,0	2 752 565,0	167,2
Sotish xarajatlari	607 315,0	1 528 351,0	921 036,0	251,7
Ma'muriy xarajatlar	1 456 997,0	1 749 907,0	292 910,0	120,1
Boshqa operatsion xarajatlar	2 034 668,0	3 573 287,0	1 538 619,0	175,6
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, shu jumladan:	1 232 822,0	4 667 965,0	3 435 143,0	378,6
Foizlar shaklidagi xarajatlar	461 975,0	1 820 071,0	1 358 096,0	394,0
Valyuta kursi farqidan zararlar	770 847,0	2 847 894,0	2 077 047,0	369,4

Yuqoridagi jadvaldagi ma'lumotlarga asosan "BS TEXTILE FARG'ONA" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 2021-2022 yillardagi xarajatlar tarkibi va o'zgarishlarini tahlil qilamiz:

1. 2021-yilda tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar 13 458 362 000 so'mga yoki 2022-yilga nisbatan 13.7% ga oshgan bo'lsa-da, sotilgan mahsulotlarning tannarxi 23.4% ga oshgan. Bu sof foydaning pasayishiga olib kelgan. Ushbu holatni yaxshilash uchun quyida bir nechta taklif va tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

- Xarid narxini pasaytirishga erishish uchun xomashyo yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik shartlarini qayta ko'rib chiqish. Buni yangi shartnomalar tuzish yoki mavjud yetkazib beruvchilar bilan yanada qulay shartlar bo'yicha kelishib olish orqali amalga oshirish mumkin.

- Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradigan yangi texnologiyalarni joriy etish. Bu energiya va resurslarni tejashga qaratilgan texnologiyalar bo'lishi mumkin.

- Mahsulot assortimentini tahlil qilish va undan rentabelligi past bo'lgan tovarlarni chiqarib tashlash. Buning o'rniga ko'proq foyda keltiradigan mahsulotlarni ishlab chiqarishga e'tibor qaratish kerak.

2. 2021-yilda davr xarajat 2022-yilga nisbatan +2 752 565 000 so'mni oshgan, o'sish 67.2% ga oshgan, ayniqsa sotish xarajatlari 151.7% ga oshgan, bu marketing, tarqatish yoki sotish faoliyati bilan bog'liq xarajatlarning keskin ko'payganligini ko'rsatadi. Fikrimizcha bu vaziyatda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Marketing va reklama xarajatlarini samarali boshqarish. Raqamli aloqa kanallariga o'tish hamda mijozlarni saqlab qolishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish.

- Foydalanish xarajatlarini kamaytirish. Ichki jarayonlarni avtomatlashtirish va unumdorlikni oshirish. Bu choralar xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

- Xarajatlarni nazorat qilish. Har bir bo'lim uchun xarajatlar smetasini belgilash va uni qat'iy nazorat ostiga olish. Bu xarajatlarni boshqarish va ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini olish imkonini beradi.

3. 2021-yilda moliyaviy xarajatlar 2022-yilga nisbatan +3 435 143 000 so'mni oshgan, o'sish 278.6% ga oshgan, ayniqsa foizlar shaklidagi xarajatlar 294% ga va valyuta kursi

farqidan zararlar 269.4% ga oshgan. Foiz stavkalari (bank qarz yukini) va valyuta kursi farqidan zararlarni oshganligini hamda bozor sharoitidagi keskin o'zgarishlar ko'rsatadi. Fikrimizcha bu vaziyatda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Qarz yukini kamaytirish uchun kredit muddatini uzaytirish yoki foiz stavkalarini qayta ko'rib chiqish mumkin. Bu oylik to'lovlarni kamaytirish va qarz yukini kamaytirish imkonini beradi.
- Valyuta kursining o'zgarishidan yo'qotishlarni minimallashtirish uchun xedjirlash vositalaridan foydalanish mumkin.
- Moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish uchun investorlarni jalb qilish yoki foydani qayta investitsiyalash orqali o'z mablag'larini ko'paytirish mumkin.
- Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ichki jarayonlar samaradorligini oshirish va operatsion xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi, bu esa tejamkorlikka olib keladi.
- Xodimlarni o'qitish va rag'batlantirish mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi, bu esa butun kompaniya ishining samaradorligini oshiradi.

Umumiy xolda korxonalar 2022 yilda sof tushumni oshirgan bo'lsa-da, xarajatlar (ayniqsa, moliyaviy va operatsion xarajatlar) keskin oshganligi sababli foyda pasaygan. Bu korxonalar moliyaviy va operatsion samaradorlikni oshirishga qaratilgan choralarni ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi keltirilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, sanoat korxonasida xarajatlarni hisobga olish holatining tahlili va uni optimallashtirish orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishish mumkin.

O'zbekistondagi ko'plab sanoat korxonalarida ushbu masalaga yetarlicha e'tibor berilmasligi, nafaqat korxonalar balki mamlakat iqtisodiyotning rivojlanishiga ham salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Ushbu vaziyatda korxonalarining qo'shimcha qiyinchiliklarga duch kelishlariga sabab bo'ladi, bu esa uning rivojlanishiga va bozordagi ustunligiga salbiy ta'sir o'tkazadi, oxir oqibat bu mamlakat iqtisodiy sharoitini murakkablashtiradi. Shu munosabat bilan korxonalar zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashishi kerak, bu esa yangi texnologiyalarni joriy etishni anglatadi.

Keltirilgan misoldan kelib chiqqan xolda korxonalar xarajatlarni hisobga olish holatining tahlili va uni optimallashtirish moliyaviy xarajatlar keskin kamaytirishga yordam beradi. Buning uchun uzoq muddatli moliyaviy strategiyalar ishlab chiqish jarayonida bundan foydalanish zarur. Bizningcha bunda yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalar bilan bir-qatorda quyidagilarga yanada e'tibor qaratish zarur:

1. Moliyaviy strategiyani ishlab chiqish. Uch yildan besh yilgacha bo'lgan muddatga mo'ljallangan uzoq muddatli moliya rejasini tuzing. Ushbu rejada xarajatlarni optimallashtirish, daromadlarni ko'paytirish va qarz yukini kamaytirish bo'yicha aniq maqsadlarni belgilanadi.

2. Moliyaviy tahlil. Moliyaviy ko'rsatkichlarni doimiy ravishda kuzatish va o'zgarishlarga tezkor munosabat bildirish tizimini yaratish zarur. Bu bizga moliyani samarali boshqarish va moliyaviy muammolarning oldini olishga yordam beradi.

3. Investorlarni qidirish. Yangi loyihalar va texnologiyalarga sarmoya kiritish orqali daromad manbalarini ko'paytiring. Bu bizga imkoniyatlarni kengaytirish va salohiyatni oshirish imkonini beradi.

Bu choralar korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga yordam beradi va kelajakda foyda ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti "1-sonli BHMS Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" [O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 14-avgustda 474-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan]. <https://lex.uz/docs/-828581>.
2. M.Yu.Raximov, O.T.Astanakulov, N.N.Kalandarova. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. (Darslik). – T.: "Nihol print" OK, 2022. – 484 bet.
3. Qudbiyev, N. T., Haydarov, U. S. O., & Kurbonova, S. A. (2022). Harajatlar hisobning zamonaviy usullari. Scientific progress, 3(1), 442-448.
4. Khatamovna, R. S. (2024). The Importance of Effective Organization of Accounting for the Cost of Production in the Context of Economic Modernization. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(5), 6–12.
5. Расулова, Ш. Х. (2023). Важность данных о движении затрат для повышения эффективности управления предприятием. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(11-12).
6. Демченко Д.Н. (2015). Анализ понятий «Издержки», «Затраты», «Расходы». Достижения вузовской науки, (16), 119-122.
7. Mexmonaliyev, U. B. (2024). Improving Internal Control System. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(1).
8. Mexmonaliyev, U. E. (2024). ICHKI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USULLARI. Экономика и социум, (8 (123)), 135-138.
9. Ugli, A. B. U., Tohirovich, Q. N., Khatamovna, R. S., & Nigoraxon, M. (2021). Current assets and their role in company activity. Journal of Marketing and Emerging Economics, 1(7), 25-30.
10. Rasulova, S. X. (2021). ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA UNI TO'G'RI HISOBGA OLISH ZARURIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 713-718.
11. Kurbonova, S. A. (2021). Mahsulot tannarxi hisobiga olishda boshqaruv hisobini takomillashtirish masalalari. Scientific progress, 2(8), 603-607.
12. Курбонова, Ш. (2024). Иқтисодий тақдирини эркинлаштириш ва диверсификациялаш шароитида иқтисодий тақдирини тутган ўрни. Iqtisodiyot va ta'lim, 25(2), 397-402.
13. Ibragimova, Z. (2024). Korxonalarda boshqaruv hisobining o'rni, uning moliyaviy hisobdan farqli jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(6).
14. Tohirovich, Q. N. (2024). THE ROLE OF RENTAL RELATIONS IN THE DEVELOPMENT OF THE PRIVATE SECTOR. Eurasian Journal of Technology and Innovation, 2(6), 110-119.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

